KIBER-MAKON DETERMINATSIYASI SHAROITIDA O‘SPIRINLARDA KRIMINOGEN XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

S.S.San’at[1]

1. Oriental universiteti Samarqand kampusi Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Mas'ul muallif: San’at Sobirovich Sultonmurodov, Oriental universiteti Samarqand kampusi Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi o‘qituvchisi.

e-mail: sanatsobirovich12@gmail.com

Received: 26 Oktabr 2026
Accepted: 31 Oktabr 2026
Published: 05 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: San’at, S. S. KIBER-MAKON DETERMINATSIYASI SHAROITIDA O‘SPIRINLARDA KRIMINOGEN XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI / S. S. San’at // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 82–84.

Annotatsiya. Maqolada kiber-makon determinatsiyasi sharoitida o‘spirinlarda kriminogen xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Onlayn g‘ovsizlanish effekti, anonimlik, ko‘rinmaslik, kiberbulling va virtual o‘yinlarning o‘spirin shaxsiyatiga ta’siri yoritilgan. Kognitiv immunitetni shakllantirish, xavfni erta aniqlash va ijobiy faoliyatga yo‘naltirishga asoslangan uch bosqichli profilaktika modeli taklif etiladi. Natijalar ta’lim muassasalaridagi psixologik xizmat faoliyatida qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: kiber-makon, o‘spirinlik davri, kriminogen xulq-atvor, onlayn g‘ovsizlanish, kiberbulling, profilaktika.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ КРИМИНОГЕННОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ В УСЛОВИЯХ ДЕТЕРМИНАЦИИ КИБЕРПРОСТРАНСТВА

Аннотация. В статье анализируются социально-психологические механизмы формирования криминогенного поведения у подростков в условиях детерминации киберпространства. Рассматривается влияние эффекта онлайн-растормаживания, анонимности, невидимости, кибербуллинга и виртуальных игр на личность подростка. Предложена трёхэтапная модель профилактики: формирование когнитивного иммунитета, раннее выявление риска и переориентация активности на общественно полезную деятельность. Результаты применимы в работе психологических служб образовательных учреждений.

Ключевые слова: киберпространство, юношеский возраст, криминогенное поведение, онлайн-растормаживание, кибербуллинг, профилактика.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF CRIMINOGENIC BEHAVIOR IN ADOLESCENTS UNDER THE DETERMINATION OF CYBERSPACE

Abstract. The article analyzes the social-psychological mechanisms of the formation of criminogenic behavior in adolescents under the determination of cyberspace. It examines how online disinhibition, anonymity, invisibility, cyberbullying and virtual games affect adolescents. A three-stage prevention model is proposed: building cognitive immunity, detecting risk early and redirecting activity toward socially useful pursuits. The results suit school psychological services.

Keywords: cyberspace, adolescence, criminogenic behavior, online disinhibition, cyberbullying, prevention.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda kiber-makon insonlarning kundalik hayoti, muloqot shakllari, axborot almashinuvi hamda ijtimoiy munosabatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, o‘spirinlik davrida internet va raqamli platformalardan foydalanish ko‘lami ortib borayotgani yoshlarning ijtimoiylashuvi, qadriyatlar tizimi, xulq-atvor me’yorlari va shaxsiy qarashlari shakllanishida yangi omillarni yuzaga keltirmoqda. Kiber-makon bir tomondan bilim olish, o‘z imkoniyatlarini namoyon etish, ijtimoiy aloqalarni kengaytirish uchun qulay muhit vazifasini bajarsa, boshqa tomondan nazoratsiz axborot oqimi, virtual tajovuzkorlik, noqonuniy faoliyatni targ‘ib qiluvchi materiallar va salbiy ijtimoiy ta’sirlar bilan bog‘liq xavflarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

O‘spirinlik davri shaxs rivojlanishida o‘ziga xos psixologik o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi. Mazkur bosqichda mustaqillikka intilish, o‘zini namoyon qilish ehtiyoji, tengdoshlar tomonidan tan olinishga bo‘lgan talab, emotsional beqarorlik va ijtimoiy mavqega erishish istagi kuchayadi. Shu bilan birga, ayrim o‘spirinlarda xatti-harakatlarning uzoq muddatli oqibatlarini baholash, impulslarni nazorat qilish va murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari hali yetarlicha shakllanmagan bo‘lishi mumkin. Ushbu psixologik xususiyatlar kiber-muhitdagi turli ta’sirlar bilan uyg‘unlashganda, me’yorlarga zid xulq-atvor shakllanishi uchun muayyan ijtimoiy-psixologik sharoitlarni yuzaga keltirishi ehtimoldan xoli emas.

Kriminogen xulq-atvorning shakllanishini faqat alohida shaxsning salbiy

xususiyatlari yoki huquqiy me'yorlarni buzishga moyilligi bilan izohlash yetarli emas. Bu jarayon oilaviy munosabatlar, tarbiya muhiti, tengdoshlar guruhi, ta'lim muassasasidagi psixologik iqlim, ijtimoiy nazorat va axborot makonidagi ta'sirlarning o'zaro munosabati orqali namoyon bo'ladi. Kiber-makon sharoitida esa anonimlik, virtual identifikatsiya, ijtimoiy taqqoslash, zararli guruhlar ta'siri, kiberbulling va tajovuzkor muloqot kabi omillar o'spirinlarning xulqiy qarashlari hamda ijtimoiy munosabatlariga ta'sir etishi mumkin. Bunda virtual muhitdagi ayrim salbiy tajribalar real hayotdagi xatti-harakatlarga ham ko'chishi ehtimoli mavjud.

Mazkur muammoni o'rganishda kiber-makon determinatsiyasi tushunchasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu tushuncha raqamli muhitdagi axborot, kommunikatsiya vositalari, virtual guruhlar, ijtimoiy me'yorlar va foydalanuvchilararo munosabatlarning shaxs xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini anglatadi.

O'spirinlik davri (15–18 yosh) shaxsiyat shakllanishining eng murakkab, hal qiluvchi va xavfli bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrda inson o'zining ijtimoiy rollarini, qadriyatlar tizimini, axloqiy me'yorlarni va xulq-atvor modellarini shakllantiradi. Zamonaviy davrda raqamli texnologiyalarning keskin rivojlanishi va internetning hayotning barcha sohalariga chuqur kirib borishi sababli, o'spirinlar uchun eng asosiy ijtimoiylashuv muhiti an'anaviy oila, maktab va mahalladan ko'ra kiber-makonga aylanib bormoqda. Bu o'zgarish yangi turdagi xavf va tahdidlarni keltirib chiqarmoqda. Kiber-makon determinatsiyasi sharoitida o'spirinlarda kriminogen xulq-atvor shakllanishi hozirgi davrning eng dolzarb ilmiy va amaliy muammolaridan biridir. Kiber-makon nafaqat axborot almashinuvi vositasi, balki o'ziga xos qoidalar, normalar, qiymatlar va xulq-atvor modellariga ega mustaqil ijtimoiy muhitdir. Tadqiqotning maqsadi kiber-makon omillarining o'spirinlarda kriminogen xulq-atvor shakllanishiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini nazariy jihatdan tahlil qilish va shu asosda profilaktika modelini taklif etishdir. Nazariy asos sifatida Albert Banduraning axloqiy chekinish nazariyasi, Jon Suler tomonidan ta'riflangan onlayn g'ovsizlanish effekti hamda o'zbekistonlik tadqiqotchilarning ishlari olindi.

O'zbekistonda bu muammo ayniqsa dolzarb. IIV ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2025-yillarda kiberjinoyatlar soni 11 baravar oshib, 4 865 tadan 62 440 taga yetgan. Shu davrda fuqarolarga yetkazilgan zarar 3,73 trln so'mni tashkil etgan, uning 1,89 trln so'mi 2025-yilning dastlabki 11 oyiga to'g'ri keladi. Kiberjinoyatlarning umumiy jinoyatchilikdagi ulushi 2023-yildagi 6,2 foizdan 2024-yilda 44,4 foizgacha ko'tarilgan, ya'ni deyarli har ikkita jinoyatdan biri axborot texnologiyalari orqali sodir etilgan. O'spirinlar kiber-makonda faqat qurbon bo'lish bilan cheklanmaydi, ular jinoyatchiga aylanish xavfi ham ortib bormoqda. Virtual muhitdagi anonimlik, javobgarlik hissining pasayishi va xavfli ijtimoiy muhitlar (diniy ekstremizm, kiberbulling, virtual o'yinlar) o'spirinlarni kriminogen xulq-atvorga tortishi mumkin. Bu jarayon yoshlar orasida jinoyatchilikning o'sishigagina emas, balki jamiyatning kelajagiga ham xavf tug'diradi.

Kiber-makon determinatsiyasi kiber-makonning o'spirin xulq-atvorini shakllantirishda hal qiluvchi omil bo'lishi, uning qoidalariga, normalariga va xulq-atvor modellariga moslashishini anglatadi. An'anaviy ijtimoiylashuv muhitlari, xususan oila, maktab, mahalla o'rnini bosib, kiber-makon o'spirinlar uchun asosiy ijtimoiy muhitga aylanmoqda. Bu jarayon ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan kiber-makon yangi imkoniyatlar, axborot manbalari va ijtimoiy bog'liqlikni ta'minlaydi, ikkinchi tomondan yangi turdagi xavflar va kriminogen omillar paydo bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda nazoratning yo'qligi va jonli muloqotning kamayishi o'quvchi yoshlarda virtual makondagi faoliyatni ixtiyoriy nazorat qilish qobiliyatining pasayishiga olib kelishi qayd etilgan. 15–18 yoshli 234 nafar o'quvchi o'rtasida o'tkazilgan so'rovda ijtimoiy-psixologik adaptatsiya 48,7 foizida o'rtacha, 25,2 foizida past darajada rivojlangani aniqlangan; bu holat ularning tashqi ta'sirga nisbatan zaifligini oshirishi mumkin. O'spirinlar duch keladigan xavfli ijtimoiy muhitlarni bir necha guruhga bo'lish mumkin: diniy ekstremizm va radikalizm, kiberbulling va virtual o'yinlar. Diniy ekstremizm va radikalizm kiber-makonda dinga oid axborotning keng tarqalishi, noto'g'ri talqinlar va ularning yoshlar ongiga ta'siri orqali namoyon bo'ladi. Har bir muhit o'ziga xos xususiyatlarga ega va o'spirinlarda turlicha kriminogen ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda kiber-makonda sodir etilayotgan huquqbuzarlik holatlari ortib bormoqda. Kiberbulling kiber-makonda sodir etiladigan psixologik zo'ravonlik bo'lib, o'spirinlar orasida keng tarqalgan eng jiddiy muammolardan biridir. U an'anaviy bullingdan farqli o'laroq, kun davomida to'xtamasligi, keng auditoriyaga yetkazilishi va qurbonga qochish imkonini bermasligi bilan ajralib turadi. Kiberbullingning asosiy ko'rinishlari: haqorat va tahdid xabarlari yuborish, shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish, feyk profil yaratib obro'ni tushirish, guruhda izolyatsiya qilish, rasm va videolarni ruxsatsiz tarqatish. PISA-2022 ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 15 yoshli 7 293 nafar o'quvchining 17,1 foizi bullingning biror turiga muntazam, ya'ni oyiga bir necha marta uchrashini bildirgan; bu har oltinchi o'quvchiga to'g'ri keladi. Kiberbulling qiluvchi o'spirinlarning keyinchalik boshqa huquqbuzarliklarga moyil bo'lishi masalasi esa uzoq muddatli kuzatuvlar orqali alohida o'rganilishi lozim.

Virtual o'yinlar ham o'spirinlar orasida keng tarqalgan faoliyat bo'lib, nafaqat vaqt o'tkazish vositasi, balki xulq-atvor shakllanishida ham rol o'ynaydi. O'zbekistonlik psixologlar tomonidan o'smirlarda kompyuter o'yinlariga tobelik va uni korreksiya qilish masalalari o'rganilgan. Virtual o'yinlarda bir qancha xavflar mavjud: agressiv xulq-atvorning kuchayishi, virtual dunyoda zo'ravonlik ko'rinishidagi harakatlarni takroran bajarish tajribasi, haqiqiy hayot va virtual dunyo o'rtasidagi chegaraning xiralashishi hamda moliyaviy muammolar. Ko'plab o'yinlarda zo'ravonlik, qotillik, o'g'irlik kabi harakatlar o'yin qoidasi sifatida normal qabul qilinadi. Bandura nazariyasi nuqtai nazaridan bunday muhit axloqiy oqlash va evfemistik belgilash mexanizmlarini kuchaytirishi, ya'ni zararli harakatni "shunchaki o'yin" deb qabul qilishga zamin yaratishi mumkin. Shu bilan birga, o'yinlarning ta'siri o'spirinning kognitiv xususiyatlari, oilaviy nazorat va tengdoshlar muhitiga ham bog'liq bo'lishi mumkin.

O'spirinlik davridagi (15–18 yosh) shaxs ontogenezi keskin biologik va psixologik o'zgarishlar hamda ijtimoiy identifikatsiya inqirozi bilan xarakterlanadi. An'anaviy ijtimoiy muhitda o'spirin xulq-atvori tashqi ijtimoiy nazorat va

muhit sanksiyalari orqali tartibga solinadi. Kiber-makon determinatsiyasi sharoitida esa Jon Suler tomonidan ta'riflangan onlayn g'ovsizlanish effekti o'spirin ongida yashirin turgan kriminogen moyillikning yuzaga chiqishiga zamin yaratishi mumkin. Suler g'ovsizlanishni zararsiz va zararli (toksik) turlarga ajratadi; mazkur maqolada "kriminogen latentlik" atamasi muallifning talqini sifatida ishlatiladi. Suler g'ovsizlanishni keltirib chiqaruvchi olti omilni ajratadi: dissotsiativ anonimlik, ko'rinmaslik, asinxronlik (muloqotning bir vaqtda bo'lmasligi), solipsistik introyeksiya (suhbatdoshni o'z ongidagi obraz sifatida qabul qilish), dissotsiativ tasavvur (onlayn dunyoni real hayotdan ajralgan o'yin kabi idrok etish) va hokimiyat belgilarining minimallashuvi. Bu omillar birgalikda o'spirin uchun odatiy ijtimoiy tormozlarni susaytiradi.

Bu jarayonning ijtimoiy-psixologik tuzilmasi quyidagi elementlardan iborat. Birinchidan, anonim virtual identifikatsiya (nikneymlar, feyk profillar) o'spiringa real shaxsiyatni kiber-shaxsiyatdan ajratish imkonini beradi. O'spirinda "Bu ishlarni men emas, mening virtual personajim qilyapti" degan psixologik mexanizmni ko'rish mumkin. Bu real hayotdagi qonuniy va axloqiy javobgarlik hissini pasaytiradi va Bandura tavsiflagan javobgarlikni ko'chirish hamda diffuziyalash mexanizmlariga yaqin turadi. Ikkinchidan, ko'rinmaslik sababli real vaqtdagi yuzma-yuz va verbal muloqotning yo'qligi sotsial-emotsional reaksiyalarni to'sadi. An'anaviy bulling holatlarida agressor jabrlanuvchining yig'isini, qo'rquvini ko'rib, tormozlanish reaksiyasini amalga oshirishi mumkin. Kiberbullingda esa o'spirin jabrlanuvchining emotsional bosimini, zo'riqishini vizual idrok etmaydi, natijada uning empatiya darajasi pasayib, agressiya to'siqsiz namoyon bo'lishi mumkin. Jabrlanuvchi ekrandagi "ob'ekt"ga aylanganda Bandura tavsiflagan dehumanizatsiya mexanizmi ham ishga tushadi.

Raqamli muhitda uzoq vaqt bo'lish o'spirinlarda chuqur kognitiv tahlilning pasayishiga olib kelishi mumkin. Ular axborotni "oq-qora", ya'ni do'st-dushman, adolat-adolatsizlik formatidagi qisqa va emotsional motivatsion roliklar orqali qabul qiladi. Virtual o'yinlar va ijtimoiy tarmoqlardagi yopiq guruhlar o'spirin ongida zo'ravonlik hamda jinoiy harakatlarni normallashtirishi mumkin. O'spirinlar kiber-makonda faqat passiv ob'ekt emas, balki faol sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot muammosining amaliy yechimi sifatida quyidagi uch bosqichli ijtimoiy-psixologik profilaktika modeli taklif etiladi:

1) Kognitiv immunitetni shakllantirish. Buning uchun ta'lim muassasalarida psixologik xizmat tizimini isloh qilish, o'spirinlarda raqamli makondan foydalanish davomida manipulyatsiyaga uchramaslik uchun axborotni tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Ijtimoiy tarmoqlarga tobelikni kamaytirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik trening tajribasi mavjud.

2) Raqamli muhitda o'spirinlar xulq-atvori indikatorlarini monitoring qiluvchi psixologik xavfni erta aniqlash tizimlarini joriy etish. Bunday tizimlar bolaning shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligi va huquqlariga zarar yetkazmasligi, monitoring esa jazolashga emas, balki o'z vaqtida psixologik yordam ko'rsatishga yo'naltirilishi kerak.

3) Kriminogen xulq-atvor namoyon qilgan yoki jinoiy guruhlar ta'siriga tushgan o'spirinlarni real muhitga qaytarishda ularning kiber-makondagi yuqori faolligi, riskka moyilligi va yetakchilik ambitsiyalarini destruktiv yo'nalishdan ijtimoiy foydali yo'nalishga burish zarur. Masalan, ularni robototexnika, raqamli startaplar va kibersportning ijobiy ko'rinishlariga jalb etish orqali xulq-atvor korreksiya qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, o'spirinlarda kiber-makon determinatsiyasi sharoitida kriminogen xulq-atvor shakllanishi an'anaviy pedagogik va ma'rifiy usullar bilan to'laqonli hal etib bo'lmaydigan, ijtimoiy-psixologik jihatdan tizimli muammodir. Mazkur muammoni bartaraf etish faqat taqiqlash yoki bloklash mexanizmlariga tayanmasligi kerak. Samarali yondashuv oila, maktab, psixologik xizmat, huquq-tartibot organlari va texnologik platformalar hamkorligiga hamda o'spirinlarda kognitiv immunitet va raqamli madaniyatni shakllantirishga asoslanishi lozim. Profilaktika dasturlari o'spirinlarning yoshi, ijtimoiy muhiti va raqamli faolligiga moslashtirilishi zarur. Maqola nazariy tahlilga tayanadi, shu sababli keltirilgan xulosalar empirik tekshiruvni talab qiladi: kiber-makon omillari bilan kriminogen moyillik o'rtasidagi bog'liqlikni uzoq muddatli kuzatuvlar va psixodiagnostik so'rovlar orqali o'rganish keyingi tadqiqotlarning vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Abduraimova, N. Kiberjinoyatlar oqibatida fuqarolarga yetkazilgan zarar to'g'risida IIV axborot xizmati ma'lumotlari. O'zA, 2025-yil 24-dekabr.

[2] Bandura, A. Moral Disengagement in the Perpetration of Inhumanities. Personality and Social Psychology Review, 1999, 3(3), pp. 193-209.

[3] G'oziyev, E. G'. Ontogenez psixologiyasi. "Noshir" nashriyoti, Toshkent. 2010.

[4] Ibragimova, Z. Ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida o'quvchilar dunyoqarashi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. O'zMU xabarlari, 2025, 1/2, pp. 112-114.

[5] Jo'rayev, A. N., Xursanova, O'. E. Kiber makonda din bilan bog'liq muammolar va yechimlar. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2026, pp. 509-511.

[6] O'zbekiston Respublikasi IIV Tezkor-qidiruv departamenti Kiberxavfsizlik markazi faoliyatiga bag'ishlangan press-tur. gov.uz, 2025-yil 29-may.

[7] Sobirova, N. Ijtimoiy tarmoqlarda o'smirlar viktimizatsiyasining zamonaviy shakli sifatida kiberbulling: taqqoslovchi kriminologik tahlil. Jamiyat va innovatsiyalar, 2025, 6(2), pp. 147-168. pp147-168.

[8] Suler, J. The Online Disinhibition Effect. Cyber Psychology & Behavior, 2004, 7(3), pp. 321-326.

[9] Выготский, Л. С. Педология подростка. Собрание сочинений: в 6 т. Т. 4. Москва: Педагогика, 1984.